

KONSTITUTSIYA: YANGI O'ZBEKISTONNING YANGI SAHIFASI

CONSTITUTION: A NEW PAGE OF A NEW UZBEKISTAN

КОНСТИТУЦИЯ: НОВАЯ СТРАНИЦА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Andijon davlat pedagogika instituti talabalari

Numonova Nodira Omonjon qizi

No'monova Dildoraxon Muqimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti v.b dotsenti

Igamberdiyev Doniyor Saidxonovich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi mamlakat taraqqiyotida qanday muhim bosqich bo'lgani yoritiladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash, fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Unda "Yangi O'zbekiston" g'oyasining asosiy tamoyillari – adolat, qonun ustuvorligi, ochiqlik, ijtimoiy himoya va xalq manfaatlarini ustuvor qo'yish masalalari aks etgani tahlil qilinadi. Shuningdek, Konstitutsiya jamiyatni modernizatsiya qilish, davlat boshqaruvini takomillashtirish va kelajak avlodlar uchun barqaror taraqqiyot yo'lini belgilovchi tarixiy hujjat sifatida baholanadi. Shu orqali yangi Konstitutsiya mamlakatimizning yangi taraqqiyot sahifasini ochib bergani asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Konstitutsiya, strategiya, Yangi O'zbekiston, senat, Oliy Majlis, deputat*

Abstract: *This article discusses how the updated Constitution of the Republic of Uzbekistan was an important stage in the development of the country. The new Constitution is distinguished by its focus on deepening democratic reforms, guaranteeing human rights and freedoms, and strengthening civil society. It analyzes how it reflects the main principles of the idea of "New Uzbekistan" - justice, the rule of law, openness, social protection, and prioritizing the interests of the people. The Constitution is also evaluated as a historical document that sets the path for the modernization of society, improvement of public administration, and sustainable development for future generations. It is argued that the new Constitution has opened a new page in the development of our country.*

Keywords: *Constitution, strategy, New Uzbekistan, Senate, Oliy Majlis, deputy*

Аннотация: *В статье рассматривается, как принятие обновлённой Конституции Республики Узбекистан стало важным этапом в развитии страны. Новая Конституция отличается ориентацией на углубление*

демократических реформ, обеспечение прав и свобод человека, укрепление гражданского общества. Анализируется, как она отражает основные принципы идеи «Нового Узбекистана» – справедливость, верховенство закона, открытость, социальную защиту и приоритет интересов народа. Конституция также оценивается как исторический документ, определяющий путь модернизации общества, совершенствования государственного управления и обеспечения устойчивого развития для будущих поколений. Утверждается, что новая Конституция открыла новую страницу в развитии нашей страны.

Ключевые слова: Конституция, стратегия, Новый Узбекистан, Сенат, Олий Мажлис, депутат

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Vatanimiz mustaqilligi, xalqimiz tinch osoyishta hayoti, fuqarolarning huquq va erkinliklarining mustahkam huquqiy kafolatidir.

Har bir davlat o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlar ekan, xalqning xohish va irodasidan kelib chiqib, tinch va farovon turmush tarziga huquqiy asos bo‘luvchi tartiblarni asosiy qonunida mustahkamlab oladi. Asosiy Qonunda bayon etilgan tartiblar shu qadar ahamiyat kasb etadiki, hech bir fuqaro usiz yashay olmaydi, negaki insoning kundalik to‘qnash keladigan muammolari yechimi bevosita unga bog‘liq bo‘ladi.

Shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda ro‘y berayotgan geosiyosiy vaziyatlar, eng avvalo, Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi va unda belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun nafaqat qonunlarimiz mustahkamlanishi, balki Konstitutsiyamizda ham inson sha’ni, uning qadr qimmatini yuksaltirishga qaratilgan normalarni yanada takomillashtirib, bugungi kun talablariga moslashtirish ehtiyojini paydo qildi. Natijada xalqimizning taklif va mulohazalari asosida yangilangan Konstitutsiya loyihasi ishlab chiqilib, umumxalq muhokamasiga qo‘yildi. Muhokamalar yakunida mamlakatimiz tarixida birinchi marta Bosh qonun hujjati referendumda bevosita xalq tomonidan qabul qilindi.

Konstitutsiyaning mamlakat taraqqiyotidagi muhim bosqichlari

1. Mustaqil davlatning huquqiy poydevorini yaratish

Konstitutsiya davlat suverenitetini mustahkamlovchi asosiy hujjat sifatida mustaqillikning huquqiy asosini yaratadi.

Kitoblarda qayd etilishicha, Konstitutsiya – davlatning siyosiy tizimi, hokimiyatlar bo‘linishi, boshqaruv shakli va davlat ramzlarini belgilovchi asosiy qonundir.

2. Inson huquq va erkinliklarini kafolatlash

A.Saidovning “O‘zbekiston konstitutsiyaviy huquqi” kitobida ta’kidlanganidek, Konstitutsiyaning eng muhim bosqichi – shaxsning qadr-qimmatini, huquqlari va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e’tirof etishdir.

Bu jamiyat taraqqiyotida erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

3. Demokratik davlat qurilishi va hokimiyatlar bo‘linishi tamoyili

Huquqshunos olimlar ta’kidlashicha, Konstitutsiya mamlakat taraqqiyotining keyingi bosqichiga — demokratik davlat barpo etish jarayoniga asos bo‘ladi.

Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining mustaqilligi demokratik rivojlanishning asosiy poydevoridir.

4. Iqtisodiy islohotlar va bozor iqtisodiyoti tamoyillari

Ko‘plab darsliklarda aytilishicha, Konstitutsiya mulkchilik shakllarining tengligini kafolatlaydi, tadbirkorlik erkinligini ta’minlaydi.

Bu esa mamlakatning iqtisodiy o‘sishi, modernizatsiya va investitsion muhitning rivojlanishiga olib keladi.

5. Ijtimoiy davlat tamoyilini mustahkamlash

“Davlat va huquq asoslari” kitobida qayd etilishicha, Konstitutsiya ijtimoiy himoya, ta’lim, sog‘liqni saqlash, pensiya tizimini davlat zimmasidagi muhim vazifa sifatida belgilaydi.

Bu mamlakatning barqaror va adolatli rivojlanish bosqichi sifatida ko‘riladi.

6. Yangi O‘zbekiston islohotlarining konstitutsiyaviy bosqichi (2023 yil tahriri)

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlat va jamiyatning yangi rivojlanish modelini belgilagan tarixiy bosqich sifatida kitoblarda va ilmiy maqolalarda keng yoritilmoqda.

Unda: inson qadrini yuksaltirish, ijtimoiy adolat, kuchli huquqiy kafolatlar, davlat boshqaruvini samarali qilish tamoyillari mustahkamlangan.

Konstitutsiya alohida yuridik xususiyatlarga ega bo‘lgan yagona siyosiy-huquqiy hujjat bo‘lib: unda shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy prinsiplari o‘rnatiladi; davlat hokimiyatining tuzilishi, subyektlari, hokimiyatni amalga oshirish mexanizmi belgilanadi; jamiyat, inson va fuqaroning davlat tomonidan qo‘riqlanadigan huquqlari va erkinliklari mustahkamlanadi.

Konstitutsiya o‘z mohiyati va yuridik tabiatiga ko‘ra boshqa huquqiy hujjatlardan quyidagi muhim jihatlari bilan ajralib turadi:

birinchidan, Konstitutsiya maxsus subyekt, ya’ni O‘zbekiston xalqi tomonidan referendum orqali yoki uning nomidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchiligi ovozi bilan qabul qilinadi;

ikkinchidan, Konstitutsiyaviy qoidalar ta’sis etuvchi, yo‘naltiruvchi, birlamchi ahamiyatga ega;

uchinchidan, Konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining keng qamrovliligi bilan tavsiflanadi, ya’ni u nihoyatda muhim va keng ko‘lamdagi ijtimoiy munosabatlar doirasiga ta’sir ko‘rsatadi;

to‘rtinchidan, Konstitutsiya alohida yuridik xususiyatlarga ega, ya’ni boshqa qonunlardan ustunlikka, oliy yuridik kuchga, o‘ziga xos muhofaza shakliga, maxsus tarzda qabul qilinish va o‘zgartirish tartibiga ega.

1991-yil 31-avgustda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VI sessiyasida parlamentning «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida» qarori qabul qilindi.

Mazkur qonun o'zida Konstitutsiyada mustahkamlanishga loyiq bo'lgan bir qator muhim prinsipial qoidalarni mujassam etganligi bilan ahamiyatlidir. Mustaqillikka erishgandan keyin O'zbekiston rahbariyati demokratik talablarga va prinsiplarga javob beradigan davlat hokimiyatini tashkil etish; bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodni tashkil etish; fuqarolar manfaatiga mos keluvchi fuqaro, jamiyat, davlat munosabatini o'rnatish, unda fuqaro manfaatlarining ustunligini ta'minlash, inson, uning huquqi, erkinligi, qadr-qimmatini, sha'nini oliy qadriyat darajasiga ko'tarish; mamlakatda yashovchi barcha millatlar manfaatlarini birdek ta'minlash; mamlakat xavfsizligini birday ta'minlashni nazarda tutuvchi tashqi siyosat olib borish vazifasini ko'zlovchi tashqi siyosat olib borish mamlakatimiz oldidagi eng muhim vazifalar sifatida maydonga chiqdi.

Bu vazifaga erishishi uchun esa yuqoridagilarni birinchi navbatda, huquqiy asosini yaratish, ularni huquqiy normalarda mustahkamlash zarurati paydo bo'ldi va shu vazifani bajarish uchun mamlakatimizda birinchi marta mustaqil Konstitutsiya ishlab chiqilib, qabul qilindi.

Shunday qilib Konstitutsiya qabul qilish zarurati nima degan savolga, O'zbekiston mustaqilligi va ana shu tufayli vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish zarurligidir deyilsa xato bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR:

1. N. OBLOMURODOV, S. OTAMURATOV, M. YULDASHEVA, X. OKYULOV, K. MAHMUDOV, F. ADILOV, T. ALIYEV, S. SHOYIMOV YANGI TAHRIRDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI O'QUV QO'LLANMA Toshkent «Yuridik adabiyotlar publish» 2024

2. B.T. Musayev, K.R. Aliyeva, B.A.Narimanov KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ Darslik TOSHKENT – 2020

3.M.M. Abdullayeva Konstitutsiya va qonunning ustunligi 2023

4.B.S. Turdiyev YANGI TAHRIRDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI 2023